



O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYONING TA'LIM SOHASIDAGI ALOQALARI VA ULARNING HAMKORLIK MASALALARI

Djumabayev Yorqin Turdibekovich

Oriental universiteti Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorligi, aloqalari va rivojlanishi jarayonlarini tarixiy asoslar, faktlar, statistic ma'lumotlar asosida yoritishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, mamlakatlar, aloqalar, hamkorlik, ta'lim va boshqalar

Abstract: This article attempts to shed light on the processes of mutual cooperation, relations and development of the Republic of Uzbekistan with the countries of Central Asia in the field of education based on historical foundations, facts, and statistical data.

Key words: Republic of Uzbekistan, Central Asia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Tajikistan, countries, relations, cooperation, education, etc.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ta'lim sohasidagi aloqalar hozirgi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu aloqalar, nafaqat mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun ham zarur. Buning bir necha asosiy sabablarini ko'rsatish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston, o'zining geosiyosiy joylashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari bilan mintaqada muhim rol o'ynaydi. Ta'lim sohasida hamkorlikni kuchaytirish orqali mintaqaviy integratsiyani ta'minlash mumkin. Bu esa davlatlar o'rtasida o'quvchilar va talabalarning almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar, pedagogik texnologiyalar va yangi metodologiyalarning tarqalishiga imkon yaratadi.



O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorligini olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganishgan. Jumladan, M. Turdimovning tadqiqotlarida O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy roli va bu aloqalarning kelajagi, shu jumladan ta'lim va ilmiy hamkorlikdagi o'rni tahlil qilinadi. O'zbekistonning regional iqtisodiy aloqalaridagi ta'lim sohasining ahamiyati haqida muhim xulosalar keltirilgan. R. Akhmedov ilmiy ishida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ta'lim sohasidagi integratsiyani o'rganadi¹. O'zbekiston va uning qo'shni davlatlaridagi ta'lim tizimlarining o'zaro aloqalari, tajriba almashinuvi va mutaxassis tayyorlashdagi hamkorligi jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. A. Yuldashev esa Markaziy Osiyoda ta'lim va madaniyat aloqalarining tarixiy rivojlanishi muommolarini ko'rib chiqadi². Shuningdek, O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvning o'rni va ahamiyatini tahlil qilgan tadqiqotchilardan biri J. Babayev bo'lib, uning ishida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikning rivojlanishi, uni qollab-quvvatlovchi davlat siyosati va amaliy aloqalar haqida so'z boradi³. Sh. Mukhammadiyev esa Markaziy Osiyoda ta'lim va fan sohasidagi asosiy muammolar va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi tendensiyalarni tahlil etadi hamda O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlikning ahamiyatini yoritadi⁴. T. Ismailovning globalizatsiya jarayonlari Markaziy Osiyo ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shu jumladan O'zbekistonning ta'lim sohasidagi islohotlari va xalqaro aloqalarining rivojlanishi haqida fikr yuritiladi⁵. A. Sattorovning tadqiqot ishi esa yangi yondashuvlar va Markaziy Osiyoda ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlarini o'rganadi⁶. O'zbekistonning ushbu jarayonlardagi roli va o'zgarishlarga

¹ Ахмедов Р. "Центральноазиатская образовательная интеграция". — Тошкент, 2016. — 200 с.

² Юлдашев А. "Образование и культурные связи в Центральной Азии". — Тошкент, 2017. — 180 с.

³ Бабаев Ж. "Развитие образовательных связей между Узбекистаном и Казахстаном". — Тошкент, 2018. — 220 с.

⁴ Мухаммадиев Ш. "Образование и наука в Центральной Азии: проблемы и перспективы". — Тошкент, 2019. — 250 с.

⁵ Исмаилов Т. "Образование в Центральной Азии в контексте глобализации". — Тошкент, 2020. — 240 с.

⁶ Сатторов А. "Новые подходы к образовательной интеграции в Центральной Азии". — Тошкент, 2021. — 230 с.



nisbatan ta'sirini tahlil qiladi. A. Sharipovning kitobida Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ta'lim tizimining tarixiy va madaniy asoslari haqida so'z boradi⁷. O'zbekiston va uning qo'shnilaridagi ta'lim an'analari, madaniyat va tarix o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida ma'lumotlar berilgan.

A. Rakhimovning tadqiqot ishida O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi ta'lim tizimidagi tajribasi va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi⁸. O'zbekistonning ta'lim sohasidagi aloqalari va innovatsiyalar haqida so'z boradi. M. Khudoyberdiyev asarida Markaziy Osiyodagi ta'lim siyosatining rivojlanishi, O'zbekistonning bu jarayonlardagi o'рни va uning boshqa mamlakatlar bilan ta'lim sohasidagi hamkorligini yoritadi⁹.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishga intilmoqda¹⁰. Bu jarayonlar ta'lim sohasidagi zamonaviy muammolarni hal qilishga yordam beradi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlarining har biri bilan ta'lim sohasidagi aloqalarini qayd etib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik 1991-yildan boshlanadi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlik masalalari ham e'tiborga molik. Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik 1994-yil 10-yanvardagi Madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, ta'lim, turizm va sport sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi hukumatlararo bitim asosida amalga oshirilmoqda¹¹. Ikki mamlakatning ilmiy va ta'lim muassasalari o'rtasida o'qituvchi va talabalar, o'quv-uslubiy materiallar almashinuvi

⁷ Шарипов А. "Влияние исторических и культурных факторов на развитие образования в Центральной Азии". — Тошкент, 2022. — 210 с.

⁸ Рахимов А. "Узбекистан в системе образования Центральной Азии: опыт и перспективы". — Тошкент, 2023. — 260 с.

⁹ Худойбердиев М. "Центральноазиатская образовательная политика и роль Узбекистана". — Тошкент, 2024. — 280 с.

¹⁰ Тўраев Р. Социокультурные аспекты взаимодействия Узбекистана и соседей: Автореф. дисс. канд. филос. наук. — Тошкент, 2014. — 30 с

¹¹ www.president.uz/ Qozog'iston Respublikasining davlat va jamoat arboblardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida . 2024.08.26



sohasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar yo'lga qo'yilgan. O'zbekistondagi universitetlar Qozog'istonning 50 dan ortiq oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalariga ega.

Aloqalar ilmiy kengashlar doirasida, o'qituvchi va talabalar, o'quv-uslubiy materiallar almashinuvi shaklida amalga oshiriladi. Ikki mamlakat Fanlar akademiyalari o'rtasidagi samarali hamkorlik an'anaviy tarzda kimyo va kimyo texnologiyasi, biologiya va biotexnologiya, biomeditsina va dori vositalari, seysmologiya va seysmodinamika, arxeologiya va tarix kabi yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan institutlar darajasida amalga oshirilmoqda. Qozog'istondagi 97 ta oliy o'quv yurtida turli yo'nalishlarda o'zbekistonlik 17 014 nafar talaba tahsil olmoqda¹². O'zbekistonda 803,4 ming qozoq (aholining 2,6 foizi) istiqomat qiladi. Qozog'istondagi o'zbeklar jamoasi 500 ming (aholining 3%). 400 ta maktabda darslar qozoq tilida olib boriladi.

Ta'lim faqat qozoq tilida olib boriladigan 162 maktab mavjud. Qozoq tilida oliy va kasb-hunar ta'limi olish uchun Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Nukus, Jizzax va Navoiy davlat pedagogika institutlarida qozoq tili va adabiyoti fakultet va kafedralari tashkil etildi¹³. Ushbu ta'lim muassasalari gumanitar va texnik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlaydi.

1991-2019 yillarda 630 nafar (shundan 2016- yildan buyon 33 nafar) Qozog'iston O'zbekiston fuqarolari davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar . 1991 yildan beri Qozog'istonning 23 fuqarosi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi¹⁴, shu jumladan. N. Nazarboyev ("Buyuk xizmatlari uchun", "El-Yurt hurmati" ordenlari) va A. Mamin ("Do'stlik " ordenlari) bilan taqdirlangani orqali ham aloqalar neqadar muhim ekanligining isboti sifatida qarash mumkin.

¹² Турдимов Н. Экономическая роль Узбекистана в Центральной Азии и перспективы развития. — Экономика и жизнь, 2007. № 8. — с. 18-23.

¹³ Некоторые аспекты культурного сотрудничества стран Центральной Азии // Ўзбекистон тарихи. 2002. – №4. – Б. 69-73

¹⁴ Шарифов А. Геополитика Центральной Азии в контексте внешней политики Узбекистана. — Тошкент, 2012. — 180 с.



O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida do'stlik va madaniy aloqalar, ta'lim sohasida 2022-yil 23-dekabrda bir qancha yangi dastur ishlab chiqildi va tadbiq qilindi. Bitim har yili 20 nafar ikki mamlakat fuqarolarini oliy o'quv yurtlarda o'qitish, O'zbekistonda qozoq tili va adabiyoti, Qozog'istonda esa o'zbek tili va adabiyotini o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim va ilm-fan sohasida loyihalarni amalga oshirish, dasturlar, konferensiya, seminar, mahorat darslari, olimpiadalar tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ikki davlat ilmiy jurnallarida maqolalar chop etishni kuzda tutadi. Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida universitetlararo aloqalar yanada kengaymoqda. Hozirda O'zbekiston va Qozog'iston oliy o'quv yurtlari¹⁵ (Qozog'istonning 70 dan ortiq universiteti) o'rtasida hamkorlik bo'yicha 230 dan ortiq shartnoma va memorandum mavjud bo'lib, unda muhim jihatlari aks ettiriladi.

Shuningdek, mamlakatimizning 6 ta oliy o'quv yurtida qozoq tili va adabiyoti yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash ishlari ham yo'lga qo'yilmoqda. Hozirda O'zbekistonning 6 ta oliy o'quv yurtida ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar uchun kadrlar tayyorlanmoqda¹⁶. Bular, Guliston va Qoraqalpoq davlat universitetlarida «Filologiya va tillarni o'qitish: qozoq tili» bakalavriat yo'nalishi bo'yicha Toshkent davlat pedagogika universiteti, NavGPI, Nukus davlat pedagogika instituti va Chirchiq davlat pedagogika universitetida – bakalavriatning «Ona tili va adabiyoti: qozoq tili va adabiyoti» yo'nalishlari faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonning oliy o'quv yurtlarida Qozog'istonning 300 dan ortiq fuqarosi tahsil oladi¹⁷. Ikki davlat o'rtasida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik, talabalar almashinuvi, birgalikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish amaliyotlari mavjud. 2020-yildan boshlab, "O'zbekiston – Qozog'iston" ta'lim

¹⁵ Турдимов Н. Роль Узбекистана в укреплении региональной безопасности Центральной Азии. — Тошкент, 2007. — 270 с.

¹⁶ Косымов С. Современные вызовы и угрозы безопасности в Центральной Азии. — Безопасность и стабильность, 2010. № 3. — с. 20-30.

¹⁷ Юсупов М. Экономическая интеграция и ее влияние на Узбекистан в Центральной Азии: Автореф. дисс. канд. экон. наук. — Тошкент, 2012. — 25 с.



dasturlari doirasida umumta'lim muassasalarida o'qitish metodikalarini birlashtirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi o'rinda 1991-yildan buyon O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik davom etmoqda. Har ikkala davlatning oliy ta'lim muassasalari o'rtasida birgalikdagi dasturlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-yilda "Ta'lim va innovatsiyalar"¹⁸ mavzusida o'tkazilgan mintaqaviy konferentsiyalar bu aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida ham ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida aloqalar mustahkamlanib borayotganligi ijobiy holdir. O'zbekiston va Tojikiston davlat rahbarlari o'rtasidagi uchrashuvda ta'lim dasturlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ozida aks ettiradi. Jumladan, 2030-yilgacha "O'zbekiston va Tojikistonda oliy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tkazilgan anjumanda Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzoda boshchiligidagi tashrif buyurgan 30 ga yaqin nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlaridan iborat delegatsiya va O'zbekiston tomonidan 50 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, vazirlik va idoralar mas'ullari qatnashdi¹⁹. Bunda mintqa davlatlari o'rtasida ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy sohalarda o'zaro hamkorlikni yaxshilashga kelishib olindi.

Tojik milliy madaniy markazi O'zbekistonda 2008 yili tashkil qilingan, bugungi kunga kelib uning tarkibiy tuzilmasida Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Farg'ona viloyatlaridagi hududiy bo'linmalari bor. Buxoroda — Oftobi So'g'diyon tojik fors markazi, Toshkentda tashkil etilgan —Oriyono hamda Chirchiq shahridagi—So'g'diyona markazlari faoliyat yuritmoqda. Sharqning buyuk olimi va shoiri Firdavsiy tavallud topgan kunini nishonlash, forstojik adabiyotining asoschisi Rudakiyning 1150 yillik yubileyi, Ibn Sino, Jaloliddin Rumi Balxiy, Mir Ali Hamadoniy, yozuvchi va

¹⁸ www.lex.uz// 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

¹⁹ www.isrs.uz// O'zbekiston –Tojikiston strategik sheriklik va hamkorlikni mustahkamlash yo'lida. 2024.07.28.



shoir Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar tojik milliy madaniy markazlarda yuqori saviyada tashkil etildi²⁰. Samarqand, Termiz va Farg'ona davlat universitetlarida, 245 ta umumta'lim maktabida o'qitish tojik tilida olib borilmoqda, tojik tilida chop etilayotgan 4 davriy bosma nashr mavjud, o'nlab teleko'rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilmoqda²¹.

Navbatdagi jarayon esa 1992-yildan buyon O'zbekiston va Turkmaniston²² o'rtasida ta'lim sohasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ushbu aloqalar asosan oliy ta'lim sohasida davom etmoqda. O'zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog'lab turadigan tarix, madaniyat va urf-odatlar xalqlarimizning umumiy mulki va madaniy merosiga aylangan. Bu yaqinlik madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik rivojida mustahkam asos bo'lmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim muassasalarida Turkmanistonning 720 fuqarosi tahsil olmoqda. O'zbekiston va Turkmaniston vakillari ikki mamlakatda tashkil etilayotgan turli madaniy tadbirlar, konsertlar, festivallar va tanlovlar, sport musobaqalarida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston sport delegatsiyasi 2017-yilning sentyabr oyida Ashxobodda o'tgan V Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha Osiyo o'yinlarida ishtirok etdi²³. Noyabr oyida Turkmanistonda O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi. Ushbu tadbir doirasida mamlakatimiz san'at ustalari va madaniyat arboblari ishtirokidagi konsert, badiiy asarlar ko'rgazmasi tashkil etildi. O'zbekistonda turkman millatiga mansub 192 ming aholi

²⁰ **Рахимов Ю.** Узбекистан и Центральная Азия в контексте развития транспортной инфраструктуры: Автореф. дисс. канд. техн. наук. — Тошкент, 2010. — 22 с.

²¹ Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonoti 2018- yil 17- 18- avgust

²² Мирзаев Ф.Р. Ўзбекистон Республикаси ва Туркменистон ҳамкорлик алоқаларининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи. Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) Автореф. - Т.: 2018. 72 б.

²³ www.yuz.uz/ Yangi O'zbekiston - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 29 dekabrda "Xorazm viloyatidagi "O'zbek-Turkman do'stlik uyi" va "Ulli hovli" majmuasi" direksiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Urganch tumani G'oybu qishlog'i "Turkmanlar" mahallasi hududidagi "O'zbek-Turkman do'stlik uyi" va "Ulli hovli" majmuasida joylashgan bino va inshootlarni saqlash, kelajak avlodga etkazish bo'yicha ko'plab sa'y harakatlar amalga oshirildi. 2024.10.14



istiqomat qilmoqda. Ularning tili, madaniyati, urf-odatlarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Mamlakatimizda turkman tilida dars beriladigan 44 maktab faoliyat yuritmoqda. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida turkman filologiyasi yo'nalishida mutaxassislar, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida turkman tili o'qituvchilari tayyorlanish jarayonlari yo'lga qo'yilmoqda.

Mintaqalararo hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim, 2018-2020 yillarga mo'ljallangan transport sohasida hamkorlik to'g'risida hamda 2019-2021 yillarga mo'ljallangan ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida hukumatlararo dasturlar, O'zbekiston va Turkmanistonda savdo uylarini tashkil etish, ikki mamlakat Savdo-sanoat palatalari o'rtasida ishbilarmonlar kengashini tashkil etish to'g'risida bitimlar, O'zbekiston va Turkmaniston Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2019-yilga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi. Ikki tomonlama hamkorlikni qishloq xo'jaligi, yoshlar, xotin-qizlar masalalari, fan-texnika, kasaba uyushmalari va boshqa sohalarda yanada mustahkamlashga doir hujjatlar qabul qilindi. O'simliklar karantini sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim²⁴, ikki mamlakat kasaba uyushmalari va xotin-qizlar qo'mitalari o'rtasida Anglashuv memorandumlari, yoshlar tashkilotlari o'rtasida Anglashuv memorandumlari shular jumlasidandir. Shuningdek, tashrif doirasida oliy o'quv yurtlari o'rtasida va axborot-kommunikatsiya sohalariga oid 15 hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar muzokaralar ochiq, samimiy, ishchanlik ruhida o'tgani, imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Turkmaniston xalqlari manfaatlari yo'lidagi serqirra va do'stona munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etdilar. Bugungi kunda Buxoro tibbiyot kollejida 212 nafar qardosh yurt yigit-qizlari shartnoma asosida o'qimoqda. 2011 yildan buyon 200 dan

²⁴ www.parliament.gov.uz// O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida siyosiy muloqot, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish bo'yicha 2022-2024 yillarga mo'ljallangan Amaliy harakatlar rejasi. 2023.10.01



ortiq turkmanistonlik yosh mazkur bilim maskani diplomiga ega bo'ldi²⁵. Ular safi bu yil yana 56 nafarga kengayadi. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida kengayib borayotgan hamkorlik ta'lim sohasida ham to'la namoyon bo'layotganligi qardosh xalqlarni do'stona aloqalaridan darak beradi. Qo'shni mamlakatdan bilim va kasb egallagani kelayotgan yoshlar safi kengayib borayotir. Ayni paytda Buxoro davlat universiteti, tibbiyot, muhandislik-texnologiya institutlari, 5 ta o'rta maxsus kasb-hunar kollejida 600 nafarga yaqin talaba va o'quvchi ta'lim olmoqda. 2021-yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida birgalikda ta'lim dasturlari va o'quv kurslarini ishlab chiqish bo'yicha kelishuvlar imzolanishi bilan aloqalar yangi ko'rinishga aks eta boshladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyo Ta'lim Tizimini Rivojlantirish" dasturi doirasida bir qator mintaqaviy tadbirlar o'tkazmoqda. Bu tadbirlar ta'lim sohasida umumiy muammolarni hal qilish va tajribalarni almashish maqsadida tashkil etiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi aloqalarini rivojlantirishga davom etmoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mintaqada barqarorlik va rivojlanishga ham hissa qo'shmoqda. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari orasida aloqalar 2017-yildan yangi ko'rinishda namoyon bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonda 300 mingdan ortiq qirg'iz, Qirg'izistonda esa 900 mingdan ortiq o'zbek istiqomat qiladi. Chegara hududlarda istiqomat qilayotgan aholining aksariyati qarindosh-urug'lik rishtalariga ega bo'lib, bu ikki davlat munosabatlarida muhim rishta, xalqlarimizni bir butunlikka bog'lovchi asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil sentabr oyida Qirg'izistonga birinchi davlat tashrifi chog'ida ta'kidlaganidek, "xalq noto'g'ri qarorlarimizdan charchadi, ular do'st bo'lishni xohlaydi, mamlakatlarning tarqoqligini tarix

²⁵ www.gov.uz/ 2024-yil 16-iyul kuni Toshkent shahrida Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Turkmaniston qo'shma komissiyasining 18-yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston – Turkmaniston ko'p qirrali hamkorlik yo'lini izlamogda. 2024.07.26.



bizni kechirmaydi”²⁶ – degan soʻzlaridan yaxshi qoʻshnichilik aloqalarini yoʻlga qoʻyish kerakligi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, 2018-yilda mamlakatimiz boʻylab Oʻzbekiston Prezidentining farmoniga muvofiq, atoqli qirgʻiz yozuvchisi va jamoat arbobi Chingiz Aytmatovning 90 yillik yubileyi keng nishonlandi Toshkent shahrida, Oʻzbekiston Milliy universitetida ijodiy kechalar, ilmiy-amaliy anjumanlar, spektakllar tashkil etildi. Mirzo Ulugʻbek, “Chingiz Aytmatov va Oʻzbekiston” koʻrgazmasi ochildi²⁷.

Qirgʻiz milliy madaniy markazlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga katta eʼtibor qaratila boshlandi. 2022-yilda Toshkentdagi “Ijodkor yoshlar uyi”da Qirgʻiziston milliy madaniy markazi tashkil etilganining 30 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosim boʻlib oʻtdi²⁸, unda Qirgʻiziston Respublikasi Davlat kotibi Suyunbek Kasmambetov ishtirok etganligi ham ushbu davlatlar oʻrtasida aloqalarning ijobiy koʻrinishga ega ekanligidan dalolat beradi. Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan taʼlim sohasidagi aloqalari koʻp qirrali va oʻzaro manfaatli boʻlib, bu mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Артиков Ж.Ю. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва транскомуникация муаммолари. Сиёсий фан. ном. ... дис. автореф. -Тошкент, 2005
2. Бобоев Б. Проблемы и перспективы интеграции Узбекистана в Центральную Азию: Автореф. дисс. канд. полит. наук. — Тошкент, 2002. — 24 с.
3. Валиев Ш. Роль Узбекистана в решении водных и экологических проблем Центральной Азии: Автореф. дисс. канд. геогр. наук. — Тошкент, 2013. — 23 с.

²⁶ Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан (период независимости). 2-е изд., перераб. и доп. –Т.: Фан, 2011. 118 с

²⁷ www.president.uz/ Qirgʻiz Respublikasining madaniyat va sanʼat sohalari vakillaridan bir guruhiga faxriy unvonlar berish toʻgʻrisida.2024.09.05

²⁸ Ахмадова Ш. Роль Узбекистана в безопасности Центральной Азии: Автореф. дисс. канд. ист. наук. — Тошкент, 2008. — 23 с.



4. **Джуманиязов А.** Роль молодежной дипломатии в укреплении связей Узбекистана с Центральной Азией: Автореф. дисс. канд. социол. наук. — Тошкент, 2011 — 29 с.
5. **Ким М.Ю.** Влияние внешнеэкономической политики Узбекистана на развитие Центральной Азии: Автореф. дисс. канд. экон. наук. — Тошкент, 2005. — 27 с.
6. **Маврулов А.** Ҳозирги босқичда Ўзбекистон маданияти ҳолати, муаммолар, тараққиёт йўналишлари (70- йил ўрталари- 90- йиллар): Тарих фан докт.... дисс.- Тошкент, 1993,
7. **Мирзаев Ғ.Р.** Ўзбекистон Республикаси ва Туркменистон ҳамкорлик алоқаларининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи. Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) Автореф. - Т.: 2018
8. **Низомов Х.** Мустақиллик йилларида Ўзбекистон ва Тожикистон Республикалари ўртасидаги маданий алоқалар (1991 – 2007 йиллар). Тарих фан. ном.... дисс. автореф. – Т.: ЎзМУ. 2010
9. **Рахимов М.А** Сотрудничество Узбекистана с зарубежными странами международными организациями В обеспечении стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии (1991-2010 гг): Доктор ист. наук дисс - Ташкент 2012
10. **Рахимов М.А.** Сотрудничество Республики Узбекистан со специализированными учреждениями ООН 1991-1999 гг. (на примере ЮНЕСКО). Дис..канд.. ист. наук. – Т., 2000
11. **Рахимов Ю.** Узбекистан и Центральная Азия в контексте развития транспортной инфраструктуры: Автореф. дисс. канд. техн. наук. — Тошкент, 2010. — 22 с.
12. **Зиямов Н.Ш.** Роль Узбекистана межгосударственного, экономического И В развитии культурного сотрудничество стран Центральной Азии (1991-2001 гг): Автореф. канд. ист. наук.- Ташкент, 2002